



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 31-yanvar, shanba,
9 (24.189)-son

O'zbek xalq
maqoli

O'z
yurtingning
qadri o'zga
yurtda
bilinar

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

**Samarqand viloyati
hokimligi huzuridagi turizmni
rivojlantirish kengashining
navbatdagi muhokamasi
Imom Buxoriy majmuasida
o'tkazildi.**

Viloyat hokimi Adiz Boboyev ishtirokida o'tkazilgan tadbirida so-hada amalga oshirilayotgan ishlar, yangi loyihalar, mavjud muammo va



kamchiliklar kengash a'zolari, tegish-li idoralar va tarmoqlar mas'ullari, tumanlar hokimlari bilan turizm yo'nalishida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar bilan birga muhokama qilindi.

Yig'ilish avvalida viloyat turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jo'rabek Suyunov o'tgan yil amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axborot berdi.

Ta'kidlanishicha, 2025-yilda viloyatga 3 milliondan ortiq xori-jij hamda 5 million 300 ming nafar mahalliy sayyoh kelgan va 2024-yilga nisbatan ko'rsatkich 25 foizga osh-gan. Turizm xizmatlari eksporti hajmi 621,1 million AQSh dollariga yetdi.

– Bu yil sayyohlar oqimini yanada oshirish maqsadida qator yirik loyihalar hamda xalqaro tadbirlar rejalashtiril-gan, – deydi J.Suyunov. – Xususan, Imom Buxoriy va Imom Moturidiy majmualari foydalanishga topshirili-shi munosabati bilan ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida Indoneziya va Malayziya aviakompaniyalari bilan Sa-marqandga to'g'ridan-to'g'ri aviaqat-novlarni yo'lga qo'yish bo'yicha ish olib boryapmiz. Bundan tashqari, "Sharq taomlari" xalqaro festivali, "Sharq shirinliklari" ko'rgazmasi, paraplan, havo shari, avto-moto drift shou va etno o'yinlar o'tkazish rejalashtirilgan. Samarqand shahrida sayyohlar uchun vertolyotda sayr qilish xizmati ham yo'lga qo'yiladi.

TURIZM

salohiyatimiz yuqori

Gap undan qonuniy va samarali foydalanishda

transport korxonalarini yagona korx-ona shaklida birlashtirish ko'zda tutil-gan. Ilk loyiha sifatida "STK" brendi ostida mualliflik festivallari, logistika markazi, tur paketlar asosida kirish, aviakassa, chiqish va ichki turizm yo'nalishlarida tur paketlar taqdim qilinadi. Keyinchalik shu brend bilan klaster tashkil qilish orqali mehmon-xona va restoranlar tarmog'i, turo-p-



narxlarini hisobotda arzon ko'rsa-tib, aslida yuqori narxlarda xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, xodimlar sonini kam yoki ortiqcha ko'rsatish orqali real daromadlarni yashirish holatlari aniqlangan. Masalan, tadbir-korlardan biri yil davomida 23 milliard so'm daromad olgan bo'lsa-da hiso-botda faqat uch nafar xodim faoliyat yuritishini ko'rsatgan.

Viloyat bojxona boshqarmasi boshlig'i Yakub Mirzarahimov o'tgan yilgi monitoring tadbirlari davomida xorijiy fuqarolar tomonidan 385 ta huquqbuzarlik holati aniqlanganini ma'lum qildi. Bu asosan, sayyohlar-ning bojxona qonun-qoidalarini hamda yuritmizga olib kirish va olib ketish mumkin bo'lgan mahsulotlar me'yor-lari haqida yetarli tushunchaga ega emasligi, turistik kompaniyalari bilan hamkorlik samarali yo'lga qo'yilma-gani bilan bog'liqligini qayd etdi.

Yig'ilishda Samarqand tajribasi sifatida «Samarqand turizm korpo-rratsiyasi» loyihasi taqdimot qilindi.

– Xitoyning "Xian Tourism Group" tajribasi asosida viloyat turizm boshqarmasi bilan hamkorlikda viloyatidagi turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarni birlashti-rish orqali raqobatbardosh loyiha yaratishni maqsad qilganmiz, – deydi "Shahrezada Sam Star Tour Discov-er" kompaniyasi rahbari Tolib Ja-hongirov. – Bunda Samarqanddagi mehmonxona, restoran va turistik

eratorlik, turizm qishloqlari faoliyatini yo'lga qo'yish va boshqaruvini mu-vofiqlashtirish rejalashtirilgan.

Viloyat hokimi A.Boboyev bildiril-gan fikrlar va takliflar asosida turizm sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etish, xizmatlar sifatini oshirish, yashirin iqtisodiyotga barham berish, tadbirkorlar bilan hamkorlikni kuchay-tirish hamda belgilangan loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish yuzasidan mutasaddi tashkilotlar va mas'ul rahbarlarga topshiriqlar berdi.

– Ko'rinib turibdiki, turizm bosh-qarmasi bilan turistik kompaniya va firmalar o'rtasida hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, – dedi A.Boboyev. – Aynan shu sababli sayyohlarni ko'proq jalb qilish, yangi turistik marshrutlar yaratish va mav-jud yo'nalishlarni boyitish bo'yicha aniq tashabbuslar kam. Holbuki, tumanlardagi mavjud salohiyatni turistik marshrutlarga qo'shish orqali sayyohlarning viloyatda qolish mudda-tini bir necha kunga uzaytirish imkoni-yati bor. Shu bois barcha manfaatdor tomonlar o'zaro birlashib, samarali hamkorlik qilishi va loyihalarni bosqich-ma-bosqich amalga oshirishi lozim.

Muloqot yakunida belgilangan vazifalar ijrosini doimiy nazorat qilish va erishilgan natijalarga har chorak yakunida muhokama qilib borishga kelishib olindi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
"Zarafshon" muxbiri.



ISLOM KARIMOV

yod etildi

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavallud kuni munosabati bilan kecha Samarqand shahrida buyuk davlat va siyosat arbobi yod etilib, uning haykali poyiga gullar qo'yildi.

Islom Karimov 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida tug'ilgan. Bolaligi, yoshlik yillari shu yer-da o'tgan. U mustaqil O'zbekiston Respublikasining asoschisi va davlatimizning birinchi prezidenti hisobla-nadi. Islom Karimov 2016-yil 2-sentabrda vafot etgan va o'zining vasiyatiga ko'ra, Samarqand shahridagi Hazrati Xizr majmuasida dafn etilgan. Davlatimiz rah-barining tegishli qaroriga muvofiq, bu yerda maqbara bunyod qilingan va Registon maydoni yaqinida Birinchi Prezidentimiz haykali o'rnatilgan. Islom Karimov tug'il-gan kuni va u vafot etgan sanada xalqimizning sevimli farzandini xotirlash tadbirlari o'tkaziladi.

Viloyat hokimi A.Boboyev va jamoatchilik vakillari ishtirokida Birinchi Prezident haykali poyiga gul-chambarlar qo'yildi, xalqimizning ardoqli farzandi hayoti, ibratli ishlari yodga olindi.



**Afrosiyob xitoylik
olimlar bilan hamkorlikda
o'rganiladi**



► Kun mavzusi

**Bu haqda yozish haqida ko'p o'yladim,
biroz istihola ham qilganim rost. Ammo
baribir jamoatchilikka aytishim kerak,
degan fikr sira tinch qo'ymadi.**

Aslida hammasi <https://t.me/RegulationAdliyaUZ> telegram kanalini kuzata turib boshlandi. Mayli, bu haq-da sal keyinroq...

Ayni kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi depu-tatlari xalq bilan yaqindan muloqot qilish, aholi mua-mmolarini o'rganish, ularga ijobiy yechim topish maq-sadida o'z saylov okruglarida bo'lib, fuqarolar bilan muloqot qilmoqda. Uchrashuvlarda davlatimiz rahbari-niing Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasi hamda unda ilgari surilgan g'oya va tashabbuslarning mazmuni haqida ma'lumot berilyapti.

Shuningdek, "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amal-ga oshirish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni loyihasining mohiyati keng jamoatchilikka yetkazilib, bu borada saylovchilarning taklif va fikrlari o'rganilmoqda.

Qayd qilinayotganidek, "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" doirasida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 2026-yildagi ijrosini ta'minlashga qaratilgan Davlat dasturi loyihasi jamoatchilik muhoka-masi uchun e'lon qilindi.

Loyiha uzbekistan2030.uz va regulation.gov.uz (bunga yuqorida qayd qilingan kanal orqali ham kirish mumkin) platformalarida jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi hamda aholi va ekspertlarning takliflari aso-sida takomillashtiriladi.

Og'zi polvon “fikr egalari” nega jimsiz?

Yoki ijtimoiy tarmoqni to'ldirganimiz bilan taqdirimizga befarqligimiz haqida qaydlar

O'RINLI TAKLIF – RIVOJLANISH POYDEVORI

Mamlakatni boshqarishda fuqarolarimiz bevosita va bilvosita boshqarish huquqiga ega. Va buning uchun barcha imkoniyatlar yaratilyapti. Yuqorida aytganim <https://t.me/RegulationAdliyaUZ> telegram kanalini ham bunga yana bir misol deiyish mumkin.

Chunki kanalda qabul qilinishi rejalashtirilayotgan qaror va qonun loyihalari e'lon qilib boriladi. Ular bilan tanishib, loyiha bo'yicha o'z taklif va fikrlaringizni bildiri-shingiz mumkin.

Afsuski, kanal 1332 ta obunachiga ega. Demak, har 30 ming nafar fuqarodan bir kishi kanalga a'zo bo'lgan. Buni shuncha odam yurt taqdiriga, o'zining ertasiga befarq emas, deb talqin qilsak, xato bo'lmas.

Talqinlar o'z yo'lga, lekin "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va Davlat dasturini amalga



oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon loyihasi ham muhokama uchun joylashtirilganini ko'pchilik bil-masligini qanday baholash mumkin?

Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilayotgan holatni ko'rib gohida g'ashim keladi. Chunki o'zini "fikr egalari", "neojadid" va boshqa nomlar bilan ataydiganlar hali u sohani, hali bu tarmoqni o'z qarichlari bilan o'lchab o'tirishadi.

Albatta, bunga hech qanday e'tiroz yo'lq. Lekin masala jiddiy tus olsa ularning hech birini topolmaysiz. Basharti shunday bo'lmaganda, <https://t.me/RegulationAdliyaUZ> kanali obunachilari millonga yaqinlashmasmide?

LOYIHADA NIMALAR BOR?

Dabdurustdan nega farmon loyihasi bilan tanishi-shim kerak, fikr bildirishim shartmi, degan savol tug'ili-shi tabiiy. Shuning uchun aytib o'tish lozim, loyihada 2 ta eng muhim masala nazarda tutilgan:

- Murojaatnomada ta'kidlangan sohalar bo'yicha: davlat siyosatining asosiy yo'nalish va ko'rsat-kichlari belgilab berilmoqda;
- 5 ta ustuvor yo'nalish doirasida alohida-alohida Islohotlar dasturlari (78 ta tashabbus) tasdiqlanmoqda;
- Islohotlar dasturlari ijrosini tashkil etish hamda nazorat qilishning mexanizmlari va mas'ullari belgilab berilmoqda;

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2026-yilda amalga oshirish bo'yicha quyidagilardan iborat bo'lgan Davlat dasturi tasdiqlanmoqda:

- amaliy chora-tadbirlar rejalari (306 ta tadbir);
- 2026-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar (60 ta) va Strategik qonunchilik hujjatlari (13 ta) ro'yxatlari.

Endiyam muhokamada qatnashmasangiz, fikr bildirmasangiz. Unda bilimadim...

Ha, aytgancha, jamoatchilik muhokamasi 1-fevral kuni yakunlanadi.

171,9 milliard so'm

budjet mablag'lari NOQONUNIY ishlatilgani aniqlandi

2025-yilda viloyatimizda budget xarajatlari 10 trillion 556 milliard so'mga ijo etildi. Bunda, jumladan, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 5 trillion 952 milliard so'mni, iqtisodiyotga xarajatlar esa 1 trillion 163 milliard so'mni tashkil etdi.

Davlat budjeti mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan viloyat prokuratura organlari tomonidan doimiy prokuror nazorati o'rnatilgan.

Ana shu nazorat tadbirlari davomida o'tgan yil viloyatimizdagi budget tashkilotlari tomonidan 171,9 milliard so'm budget mablag'lari qonun talablariga zid ravishda sarflangan. Xususan, 134,3 milliard so'mlik noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar amalga oshirilgan, 34,8 milliard so'm jamg'arma mablag'lari belgilangan tartiblarga rioya etmagan holda ishlatilgan. Shuningdek, 2,8 milliard so'mlik pul mablag'lari va moddiy boyliklar kamomadiga yo'l qo'yilgan.

Budjet mablag'larining talon-toroj qilinishi asosan ish haqi va boshqa to'lovlarni hisoblash, maqsadsiz foydalanish, davlat xaridlarini amalga oshirish, bajarilmagan ishlarni qo'shib yozish bilan bog'liq holda sodir etilgan.

Noqonuniy sarflangan mablag'larning asosiy qismi sog'liqni saqlash (22 milliard), yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi (19 milliard), maktabgacha va maktab ta'limi (17,9 milliard), suv xo'jaligi (8,9 milliard), ichimlik suvi va oqova suvi (19,9 milliard), avtomobil yo'llari (3,8 milliard) hamda boshqa sohalar (80,4 milliard) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Misol uchun, Samarqand shahar Qorasuv massivida 1680 o'rinni umumta'lim maktabi va sport zali qurilishida amalda bajarilmagan 662 million so'mlik qurilish-montaj ishlari qo'shib yozilib, budget mablag'lari talon-toroj qilingan.

Nazorat tadbirlari davomida budget intizomiga rioya qilmagan 51 nafar

Ming yillar qa'ridan kelayotgan illat

O'zbekistonda unga qarshi qanday kurashilmoqda?

Jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat sifatida ko'riladigan korrupsiya demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz o'tib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Aslida o'zbek tilida buzmoq ma'nosini anglatuvchi korrupsiya termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.



Viloyat prokuraturasi.

mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy ishlar sudlarga yuborildi. Natijada tibbiyot sohasidan 16 nafar, qurilishdan 11 nafar, suv xo'jaligidan 6 nafar, veterinariyadan 5 nafar, maktabgacha va maktab ta'limi hamda kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari tizimidan 4 nafardan, madaniyat sohasidan 3 nafar, qishloq xo'jaligi va avtomobil yo'llari tarmoqlaridan 1 nafardan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida smeta hujjatlarida nazarda tutilgan 301,5 milliard so'm budget xarajatlari me'yorga muvofiqlashtirildi, 120,1 milliard

so'mlik maqsadga nomuvofiq hamda ortiqcha xarajatli davlat xaridlarining oldi olindi. Talon-toroj qilingan mablag'larning 24,9 milliard so'mi budgetga qaytarildi.

O'tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan tegishli idoralarga 9 ta taqdimnoma kiritildi, qonunga zid hujjatlarga 32 ta protest keltirilib, 63 nafar shaxs intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortildi, qo'pol qonunbuzilishi holatlari yuzasidan 34 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi.

HAYVONLARGA ELEKTRON TASHXIS QO'YISH MUMKIN(MI?)

Professor Xolida Primova rahbarligida hayvonlar kasalliklarini sun'iy intellekt asosida tashxislash elektron tizimi hamda ko'krak qafasi rentgen tasvirlari orqali o'pka kasalliklarini aniqlash loyihalari amalga oshirilmoqda.

- Hayvonlar kasalliklarini tashxislash tizimi veterinariya sohasida tezkor va aniq qarorlar qabul qilish imkonini yaratib, chorvachilikda kasalliklarning oldini olish va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi, - deydi X. Primova. - Shu bilan birga, rentgen tasvirlarini sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish orqali o'pka kasalliklarini bir necha soniyada aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa shifokorlar ishini yengillashtiradi va tezkor tibbiy yordam ko'rsatishga zamin yaratadi.

"AQLLI UY-JOY VA KO'CHMAS MULKNI RIVOJLANTIRISH PLATFORMASI"

TATU Samarqand filiali dotsenti Ilhom Ismoilov tomonidan ishlab chiqilayotgan ushbu loyiha ko'chmas mulk bozorida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan.

Loyiha doirasida sun'iy intellekt yordamida uy-joy narxlarini real vaqt rejimida tahlil qilish va prognozlash, firibgarlik e'lonlarini aniqlash hamda binolarning energiya samaradorligini baholash im-

samaradorligini nazorat qilish so'z yuritilayotgan illatni tugatishda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

Agentlik xodimlariga ma'lumotlar tizimlariga qirish huquqi berilib, yuqori riskli sohalar nazorat choralari kuchaytirilgani ham e'tiborga molik.

JAMOATCHILIK VA FUQAROLIK JAMIYATINI QALB ETISH

Keyingi yillarda ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashda ochiq muhit va jamoatchilik nazorati sezilarli darajada kengaymoqda. Xususan, omma-viy muhokama, korrupsiya muammosi bo'yicha huquqiy bilimlarni tarqatish rivojlanayapti. Korrupsiya haqida murojaat qilish tizimlari va elektron platformalar yaratilmoqda.

Bundan tashqari, davlat xaridlarida korrupsiya xavfini kamaytirish uchun ochiq shartnomalar va raqobatli tenderlar amalga kiritilmoqda. Ko'plab xizmatlar va litsenziyalar raqamlashtirilib, talab qilinuvchi hujjatlar va ruxsatlar soni kamaytirildi — bu korrupsiya «imkoniyatlari»ni ham kamaytiradi. Asosiysi, Prezident yangi farmonlar va «chora-tadbirlar rejalarini»ni qabul qildi, agentlik va idoralarda kadrlar siyosati qayta ko'rib chiqildi va korrupsiyaning oldini olish choralari kuchaytirildi.

Davlat organlarida yangi nazorat tizimlari va ayrim vazirliklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat kuchaytirilishi belgilandi.

Furqat ANAROV, viloyat sudi sudyasi.

Samarqandlik olimlar sun'iy intellekt orqali shu kabi dolzarb muammolarga yechim topish ustida ishlayapti.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali o'qituvchi va tadqiqotchilari tomonidan sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasida qator innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Muassasa direktori Zayniddin Qarshiyevning ta'kidlashicha, ushbu loyihalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, tibbiyot, ta'lim, telekommunikatsiya, chorvachilik, transport va ko'chmas mulk sohalaridagi muammolar yuzasidan zamonaviy yechimlarni joriy etishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt

kasallikni aniqlashi yoki tashxis qo'yishi mumkinmi?

O'quvchi va talabalar davomati hamda xavfsizligini sun'iy aql qanday nazorat qiladi?

koniylatlari yaratiladi. Ushbu raqamli platforma aholi, investorlar va quruvchilar uchun ishonchli axborot manbai bo'lib, uy-joy bozorini ilmiy asoslangan holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

"TRACKING" KOMMUNAL SOHA VA SOLIQ XODIMLARI FAOLIYATINI DOIMIIY MONITORING QILIB BORADI

Filial o'qituvchilari Nodir Zaynalov va Muzaffar Saidmurodov tomonidan ishlab chiqilayotgan "Tracking" nazorati platformasi hududlarda kunlik faoliyat olib boradigan xodimlarni nazorat qilishga qaratilgan.

- Loyiha hududlarda kunlik faoliyat olib boradigan xodimlar, jumladan, energiya, hududguz, suv ta'minoti va soliq idoralari kabi debitorlik yuqori kuza-tiladigan tashkilotlar ishini doimiy nazorat qilish orqali ish unumdorligini oshiradi va debitorlikni qisqartirishga xizmat qiladi, - deydi N.Zaynalov. - Loyiha doirasida xodimlarning kunlik vazifalari, marshrutlari va bajarilgan ishlarni "Tracking" platformasida ro'yxatdan o'tkazish, real vaqt rejimida monitoring qilish va hisobotlarni shakllantirish, bajarilmagan yoki kechiktirilgan topshiriqlar bo'yicha ogohlantirish mexanizmlarini joriy etish, rahbariyat uchun tahliliy panel (dashboard) yaratish hamda debitorlikni undirish jarayonini raqamli nazorat va KPI orqali boshqarish ishlari amalga oshiriladi.

O'ZBEK TILI MILLIY KORPUSINING DASTURIY TA'MINOTI TAKOMILLASHTIRILMOQDA

Professor Abduvali Qarshiyev tomonidan ishlab chiqilayotgan "O'zbek tili milliy korpusining dasturiy ta'minotini takomillashtirish va matnlar bazasini shakllantirish" loyihasi o'zbek tilidagi matn resurslarini yagona ilmiy-amaliy platformada jamlash, izlash va lingvistik tahlil imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Loyiha doirasida turli manbalardan matnlarni yig'ish va tozalash, metama'lumotlarni standartlash, korpus bazasini shakllantirish, qidiruv va filtr mexanizmlarini rivojlantirish, morfologik-sintaktik belgilash (annotatsiya) modullarini joriy etish, korpus bilan ishlash uchun veb-interfeys va API yaratish, unumdorlik va xavfsizlikni oshirish hamda tizimni testdan o'tkazib amaliyotga tatbiq etish ishlari bajariladi.

O'QUVCHI VA TALABALAR DAVOMATI HAMDA XAVFSIZLIGINI AI (SUN'IY INTELEKT) QANDAY NAZORAT QILADI?

Dotsent Hoshim Rahmanov va assistent Inom Ramatov tomonidan ishlab chiqilayotgan "Ziyrak - o'quvchi va talabalar davomatini monitoring qilish hamda xavfsizligini ta'minlashning intellektual axborot tizimi" loyihasi o'quvchi va talabalar davomati hamda ta'lim muassasalarida xavfsizlikni sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan tarzda ta'minlashga qaratilgan.

Hoshim Rahmanovning ta'kidlashicha, loyiha doirasida kamera-server-AI modullaridan iborat texnik infratuzilma yaratilib, real vaqtda video oqimlarini qayta ishlash yo'lga qo'yiladi. Bunda yuzni aniqlash va identifikatsiya qilish hamda davomatni avtomatik qayd etuvchi AI algoritmlari o'qitilib optimallashtiriladi. Tizim mavjud kamera tarmoqlari bilan sinxronlashtirilib, barcha ma'lumotlar yagona platformaga birlashtiriladi, mutaxassislar va texnik jamoa hamkorligida bosqichma-bosqich joriy etish, xodimlarni o'qitish, server va kamera tizimlarini o'rnatish, testdan o'tkazish hamda muassasalarga tatbiq qilish ishlari amalga oshiriladi. Shuningdek, AI modellari aniqliq, xavfsizlik va tizim tezligi muntazam nazorat qilinib, yangilab boriladi.

AVTOMOBILLAR TEZLIGINI MONITORING QILUVCHI PLATFORMA

Muassasa dotsentlari Hotam Mirzoqulov va Hoshim Rahmonov tomonidan ishlab chiqilayotgan "Videokuzatuv kameralari asosida avtomobilning o'rtacha tezligini monitoring qilishning intellektual tizimini ishlab chiqish va joriy etish" loyihasi videokuzatuv kameralaridan olinadigan video oqimlar asosida avtomobillarning o'rtacha tezligini sun'iy intellekt yordamida aniqlash, tezlik rejimi buzilishlarini real vaqtda yaqin tarzda samarali kuzatish va yo'l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan. Loyiha doirasida avvalo texnik va tashkiliy tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi, so'ng bir nechta kameralardan kelayotgan videolar tahlil qilinib, transport vositalarini aniqlash (YOLO) va ularning harakatini kuzatish (DeepSORT) orqali o'rtacha tezlikni hisoblaydigan intellektual tizim ishlab chiqilib, testdan o'tkaziladi. Keyingi bosqichda tizim amaliyotga joriy etilib kengaytiriladi va ekspluatatsiya jarayoni yo'lga qo'yiladi, doimiy xizmat ko'rsatish va analitik hisobotlarni shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Ayni paytda olimlar mazkur loyihalarni amaliyotga to'liq joriy etish ustida ishlamoqda va bu platformalar hayotga tatbiq etilsa, hududning innovatsion salohiyati oshishiga, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash hamda iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV tayyorladi.



Bolasiga xorijiy tillarni necha yoshdan o'rgatish masalasi ko'plab ota-onalarni o'ylantiradi. Ayrimlar o'qishni ertaroq boshlash kerak, deb hisoblasa, boshqalar bolani qiyinab qo'yishdan cho'chiydi. Zamonaviy tadqiqotlar va amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu yerda asosiy omil faqat yosh emas, balki o'qitishning to'g'ri usuli hamdir.

Erta yosh: tug'ilgandan 3 yoshgacha
Bolalar hayotning ilk yillaridayoq bir nechta tilni qabul qilish qobiliyatiga ega. Bu yoshda maqsadli o'qitish haqida gap ketmaydi, asosiysi, til muhitini yaratishdir. Kichikintoy miyasi tovushlar va intonatsiyalarni oson farqlaydi, bu esa keyinchalik aksentsiz gapirishga yordam beradi.

Bu bosqichda eng yaxshi vositalar - qo'shiqlar, multfilmlar, oddiy so'z va iboralarni o'yin orqali berishdir. Ota-onaning vazifasi - o'rgatish emas, balki tanishtirish.

MAKTABGACHA YOSH: 3-6 YOSH — «OLTIN DAVR»

Mutaxassislarning ko'pchiligi aynan shu davrni til o'rganish uchun eng qulay, deb hisoblaydi. Bolalar so'zlarni oson yod oladi, gapirishdan qo'rqmaydi va tilni o'yin sifatida qabul qiladi.

Eng samarali usullar - o'yin shaklidagi mashg'ulotlar, qo'shiqlar va qo'fiyali matnlar, rolli sahnachalardir. Shuningdek, xatolarga urg'u bermasdan muloqot qilish lozim.

Bu yoshda grammatik qoidalar shart emas — til intuitiv ravishda o'zlashtirilishi kerak.

Necha yoshdan til o'rganish mumkin?



BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHI

7-10 yoshda bolalar tizimliroq ta'limga tayyor bo'ladi. O'yin va oddiy qoidalarni tushuntirishni birlashtirgan usullar yaxshi samara beradi. Qisqa matnlar, komikslar o'qish, oddiy yozish mashqlari bilimlarni mustahkamlaydi. Eng muhimi, til jonli va amaliy bo'lib qolishi, quruq qoidalar to'plamiga aylanib ketmasligidir.

O'SMIRLAR: 11 YOSH DAN KEYIN

Til o'rganishni bu yoshda ham boshlash mumkin — bu «kech qolingani imkoniyat» emas. Biroq yondashuv o'zgarishi kerak: ko'proq mantiq, grammatika va tahlil talab etiladi.

► Mutaxassis fikri

ladi. Filmlar, seriallar, til egalari bilan muloqot, bahs-munozaralar va yozma mashqlar samarali bo'ladi.

QAYSI O'QITISH USULI ENG YAXSHISI?

Eng samarali usul sifatida tilga sho'ng'ish (immersiya) usuli e'tirof etiladi. Agar til kundalik hayotda — o'yinlar, multfilmlar va suhbatlar orqali qo'llanilsa, u stressiz va tabiiy o'zlashtiriladi.

Shuningdek, mashg'ulotlarning muntazamligi (kam-kam, lekin har kuni). Ijoiy his-tuyg'ular, ya'ni xatolar uchun bosim va jazoning yo'qligi juda muhim. Ota-onalar bolaning chet tilini qanday o'zlashtirayotgani bilan bir qatorda uning bu masaladagi fikri bilan ham qiziqib turishlari lozim.

Nima qilmaslik kerak?

Bolani majburlab o'qitish, xatolari uchun tanqid qilish, til o'rgatishni juda og'ir grammatikadan boshlash bu masaladagi eng katta xato hisoblanadi.

Xorijiy tilni o'rganishni 3-6 yoshda boshlash eng maqbul hisoblanadi, ayniqsa o'yin va muloqotga asoslangan usullar qo'llanilsa. Shu bilan birga, to'g'ri yondashuv bilan istalgan yoshda ham til o'rganish mumkin. Asosiysi — qiziqish, qo'llab-quvvatlash va qulay muhit.

Shohista SAIDAHMEDOVA, SamDChTI o'qituvchisi.

Mollyuskalarda radar bor

“Radar” (radio defecting and ranging) so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, radioto'lqinlar yordamida obyektni aniqlash va o'rtacha masofani o'lchash ma'nosini beradi. Yozma manbalarda “radar qurilma” deb ham ataladi.

Radar tarmog'i Buyuk Britaniyada 1931-yilda yaratilib, 1935-yilda ilk bor samolyotlarning uchishini boshqarishda qo'llanilgan.

Radarlar inson nigohidan yashirin balandliklarda uchayotgan samolyotlarga qorong'i tunda, tumanlar yog'dusida yo'l topishda, qo'nish paytida yordam beradi. Radarning aylanuvchi antennasi radioto'lqinlar jo'natadi. Ular o'z yo'lida obyektni uchratib, to'qnashib, orqaga qaytadi. Xullas, radar nur bilan masofani va transportning tezligini aniqlaydi.

Shuningdek, radiosignalning uzatilishi va qaytishi o'rtasida o'tgan vaqt obyektgacha bo'lgan masofani aniqlashga imkon beradi. Radiosignallarning uzluksiz jo'natilishi orqali samolyot parvozinig traektoriyasini bilib olish mumkin. Aeroportlar va dengiz bandargohlarida, portlarda o'rnatilgan radarlar vositasida samolyotlar va kemalar harakatining manzarasi ekranga tushiriladi. O'z navbatida, samolyotlar yoki kemalar yo'lida uchraydigan to'siqlarni radarlar orqali aniqlaydi.

Ahamiyatli jihati, radar suv hayvonlarida ham mavjud. Jumladan, miksin baliqlarining skeleti tog'ay va qo'shilma to'qimalardan hosil bo'lgan va ularda suyak to'qimasi yo'q. Tanasi yalang'och, silliq chuvalchanglarga o'xshaydi. Qizig'i, miksinning qon aylanish sistemasi ham o'ziga xos - yuragi to'rtta bo'lib, har biri turli vazifalarni bajaradi. Bir yuragi qonni jabrasi orqali haydaydi va venoz qonning aylanishini ta'minlaydi. Qolgan uchta yuragi baliqning bosh qismida, jigari va buyragida joylashgan.

Har bir yurak mustaqil ishlaydi. Ko'zlari rivojlanmagan, ular boshdagi yorug'po'st ostida yashiringan yoki to'r bilan o'ralgan. Xullas, ular to'siqni radari bilan mo'ljalga oladi.

Markaziy Osiyo suvlaridagi mollyuskalarda radarli “uskuna” uchraydi. Min-taqamizda ikki pallali mollyuskalar sinfidan bo'lgan Anadontinae, Colletopterum va Sinanadonta kabi 60 turi yashashi aniqlangan. Aynan O'zbekiston suvlarida mollyuskalarning 20 dan ortiq turi mavjud. Bu ikki pallali mollyuskalarda ko'z yo'q, yuragi bitta, ikki qorinchadan iborat. Ular ham yo'llarida uchraydigan to'siqni, xususan, baliqlarning o'tishidan hosil bo'lgan to'lqin orqali sezadi.

Shuning uchun bu mollyuskalarni “radarli hayvonlar” deb hisoblaymiz. Mam-lakatimiz suvlarida hayot kechiruvchi bunday tishsizlarning chig'anoqlari oldingi qismini loyga yarim ko'mib yashaydi. Ular baliqlar yonidan o'tganda chig'anoqlarini ochib, jabralarida joylashgan yuzlab lichinkalari, kichik chig'anoqlarini — glaxidiyalarni baliqlarga qarab uloqtiradi, chig'anoqchalari ichki qismidagi tishlari bilan baliqning g'alsamasi, tangalariga yopishib oladi. Baliq tanasida 2-3 hafta oziqlangan mollyuskalar voyaga yetgan hisoblanib, yana suv ostiga cho'kadi. Shunday qilib mollyuskalar baliqlar yordamida yangi hududlarga tarqaladi.

Z.IZZATULLAYEV, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori.



**BU
FAKTI!**

Statistika boshqarmasiga ko'ra,
2025-yil uchun viloyat bo'yicha yalpi
hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy
narxlarda **121 489,5** milliard
so'mni tashkil etdi.
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
YalMning shakllanishida viloyatning
qo'shgan hissasi
6,6 foizga yetdi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Ashurova Mahkulga (1997-yil 25-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'li ko'chasi, 9-“B” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Sharipov Sharif Muminovichga (2025-yil 25-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Aslamovna Gulbaxor Turdunovnaga (2021-yil 18-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Kuchumova Nigora Jurabekovnaga (2013-yil 2-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz

Azamatovich notarial idorasida marhum Abdjabbarov Abdixatga (2021-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Gulyamov Yusufga (2008-yil 26-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Raxmonkulov Vafokulga (2014-yil 27-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Absatov Saydullaga (2019-yil 16-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Xalimov Ulmasga (2021-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan



Foto: Sun'iy intellekt

Inson hayotida ba'zan bilgan, ba'zan esa bilmagan holda shunday qarorlar qabul qiladiki, ularning oqibati umrbod afsusga aylanishi mumkin. Ayrim xatolarni keyinchalik to'g'rilashga imkoniyat bo'lmaydi.

Meni bu fikrlarga yetaklagan voqea esa bir paytlar o'ziga katta umid bog'lagan iqtidorli bir qiz haqida. Kelin bo'lib tushgan qishlog'imda maktabda ish boshlagan kunlarimda u bitiruvchi sinfda o'qirdi. Yurish-turishi, kiyinishi, xushmuomalligi bilan e'tiborimni tortgandi. Tengdoshlari orasida ham u bilimi, aqli va tabiiy go'zalligi bilan ajralib turardi.

Hamkasblar bilan suhbatlarimizda ham shu qiz tez-tez tilga olinardi. Barcha ustozlar uni yaxshi ko'rar, kelajagidan umid qilardi. Chunki u ijodkor, bilimga chanqoq, qalbida olim bo'lish orzusi bo'lgan qiz edi.

Afsuski, bu umidlar uzoqqa cho'zilmadi. Oradan ko'p o'tmay, uning xatti-harakatida, yurish-turishida keskin o'zgarishlar ko'rinda boshladi. Qiz yuz-ko'zini bo'yab, o'ziga xoslikni yo'qotib, tashqi ko'rinishiga ko'proq ahamiyat berishni boshladi. Surishtirib bilishimizcha, unga uydagilari so'nggi rusumdagi smartfon olib berishgan va u ijtimoiy tarmoq orqali o'zidan bir necha yosh katta yigit bilan tanishib, sevib qolgan.

Biz, ustozlar bu vaziyatga befarq bo'lmadik. U bilan suhbatlar o'tkazdik, ta'limning, kelajakdagi mustaqil hayotning ahamiyatini tushuntirdik. “Sevgi vaqtinchha, ammo bilim bir umrlik”, deb ko'p gapirdik. Ammo bu maslahatlar unga kor qilmadi.

U maktabni tugatmasdan unashirildi. Qo'lga shahodatnomasini olmasdan turmush qurdi. Na ota-onasi, na ustozlar bu qaroridan qaytara oldi. Ilm yo'lida porlashi mumkin bo'lgan iqtidor qishloq tog'lari orasida so'ndi.

Yaqinda u bilan tasodifan uchrashib qoldim. Suhbat davomida hayoti ancha qiyin kechayotganini aytdi. Uch yil ichida ikki farzandli bo'lgan, ammo onalikka tayyor emasligini tan oldi. Ustozlarining aytganini qilmaganidan afsusdaligini yashirmadi. Yuzida alam, qalbida orzulari so'ngan ayolning og'rig'i sezilib turardi.

To'g'ri, sevgi inson hayotida muhim, ammo u aql va mas'uliyat bilan tarozilanmasa, umr yo'lida og'ir sinovlarga duch kelishi aniq.

Orzu qilgan kelajakka faqat sabr, mehnat va bilim bilan yetib borish mumkin. Har bir yosh, ayniqsa, qiz bola bu hayotiy darsdan tegishli xulosa chiqarishi kerak. Chunki ular faqat bugunning emas, ertaning ham sohibalari.

Zahro IBRAGIMOVA, Nurota tumani.

O'rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Muhammadiev Toir Ahmadhonovichga (2025-yil 2-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi Yaxyayev Xashim va sotib oluvchi Uzoqov Dilshod Maxmudjonovich o'rtasida Samarqand tumani “Qorasuv” MFY, 23-sonli dala hovli uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasidan 2022-yil 13-iyunda tasdiqlanib, Ksh 089675 SA blankada tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi va ushbu dala hovlining kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi “USTOZODA STROY” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306257466) dumaloq muhri va burchak tamgasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Viloyat hokimligi jamoasi hokimlik axborot xizmati rahbari Mirzo Ixtiyorovga onasi

GULSARA ayaning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari Mirzo Ixtiyorovga onasi

GULSARA ayaning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

► Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi oldidan

“Qari Navo”

Navoiyning asari ekanligi aytiladi

Milliy musiqamizning nazariy va amaliy asoslari Alisher Navoiy ijodining tarkibiy qismi bo‘lib, mazmunan rang-barang, shaklan tugal ko‘rinishga ega. Mutafakkir tomonidan milliy musiqa san‘atimiz haqida bildirilgan fikrlar Sharq musiqa madaniyati xazinasidir.

O‘rta asrlarda Sharq musiqa-shunosligi asosan arab tilida shakllandi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Zayla, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Safiuddin al-Urmaviy, Najmiddin Kavkabi kabi allomalar asarlarida tartibga solindi. Yuqorida qayd etilgan buyuk shaxslar va yunon mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi Navoiy ijodida ham chuqur iz qoldirdi.

Shu bois Navoiy arab va fors tillarida yozilgan musiqa va falsafaga doir asarlarni chuqur o‘rgandi. Zamonasi-ning musiqa amaliyoti va nazariyasini qiyosiy tahlil qildi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinolarning ilmiy va musiqiy qarashlarini yanada rivojlantirdi.

Musiqashunoslik ilmini ikki qismga: “ilmi ta’lif” (musiqiy tovushlar, nag‘malarni o‘rganuvchi fan) va “ilmi iqo” (musiqiy ritm, shartli ravishda musiqiy vaznlarni o‘rganuvchi fan)ga bo‘lib o‘rgandi.

Fanlar akademiyasining H.Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti kutubxonasida Sharq va G‘arb mamlakatlarida mashhur olim Safiuddin al-Urmaviyning (XIII asr) shoh asari “Kitobul advor” risolasining 1466-yil Hirotda ko‘chirilgan nodir nusxasi saqlanmoqda. Nazarimizda, Navoiy Urmaviyning bu asari bilan tanish bo‘lgan. Chunki manbalarda keltirilishicha, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Binoiy, Saynulloiddin Husayniyning musiqiy risolalari bevosita



Navoiyning buyurtmasi asosida yozilgan.

“Boburnoma”da Navoiy xususida “... Yana musiqiyda yaxshi nag‘malar boqlavdur, yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordir”, deyiladi. Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasida “Navoiyning o‘zi ham musiqiyda bir risola yozgan. “Qari Navo” yoki “Qari Navoiy” kuyi haqida har tomondan so‘ylanib turur. Buxoroning eski musiqa-shunoslari orasida bu kuyning Navoiy asari bo‘lg‘oni su‘ylanadir. Mana bu ma‘lumotlardan so‘ng “Qari Navoiy” kuyining Alisher

Navoiy asari bo‘lg‘oni e‘timoli kuchlanib qolur”, deydi.

Navoiy nazmida maqomlar va cholg‘ularning nomlari bitilgan quyidagi baytlarga e‘tibor bering:

Qaddi hajrinda tortsang nola,
“Rost” ohangi ey Navoiy tuz.

Ma‘nosi: Hijron azobida nola tortsang, ey Navoiy “Rost” maqomin ohangini tuz.

Yoki: So‘zda Navoiy ne desang, chin degil, “Rost” navo nag‘maga tahsin degil.

Navoiyning “Rost” maqomiga bu tarzda murojaat qilishida ramziy ma‘no bor. Chun-ki mashhur o‘n ikki maqomdan birining nomi bo‘lgan ushbu atama tasavvufda tariqat yo‘lini ramz etadi.

Ey Navoiy, to muqarrar qildim ohangi “Hijoz”,

Gah “Iroqu”, gah “Ajam” sari tarannum aylaram.

Ma‘nosi: “Hijoz” ohangini (maqomini) kuylab bo‘lguncha, goh “Iroq”, goh “Ajam” maqomin kuylaram.

Ushbu baytni tasavvuf va majoziy ma‘noda qiyosiy tahlil qilamiz. “Hijoz” Arabiston yarim orolidagi muqaddas Makka va Madina joylashgan sarhadni anglatasa, “Iroq” ma‘lum mamlakatning nomiga ishora qiladi. Bunda Navoiyning butun umri davomida orzu qilgan, ammo ushalmay qolgan haj safariga intilishi o‘z aksini topadi. Qolaversa, tasavvuf ta’limida, ya‘ni so‘fiylikka qadam ranjida qilgan har bir umr “shariat – tariqat – haqiqat” bosqichlarini bosib o‘tishi lozim. Shu nuqtai nazardan maqom namunalarining ijroviy uslubi ham pastdan yuqoriga, “zinapoya” tarzida bosqichma-bosqich ko‘tarilib borish tamoyiliga tayanadi.

Umuman, Navoiyning musiqiy dunyosini ulkan bir ummon bilan qiyoslashga haqlimiz. Ma‘naviyatimiz boyligi bo‘lgan bu ummondan avlodlarni bahramand qilish va ulug‘ bobomizning bezavol ijodiyotini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish ijod ahli uchun muhim ahamiyatga ega.

Ravshan HAMROQULOV,
Samarqand davlat universiteti professori.

Narzulla TOSHEMIROV,
san‘atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

► Kitob javoningizda

Johilning fikri tilida bo‘ladi

Chunki u o‘ylashdan oldin gapiradi

Bu ibora inson tafakkuri va mas‘uliyati haqidagi eng aniq, eng o‘tkir haqiqatlardan birini ifoda etadi. Aytilgan har bir so‘z — insonning ichki dunyosi, ma‘naviy saviyasi va aqliy salohiyatining oynasidir. Shu bois so‘zlashdan oldin o‘ylash, sukutni tanlash — aql va zakovat belgisidir.



Samarqand shahridagi “Mahorat” nashriyoti (2025-yil)da tibbiyot fanlari doktori, professor Akbar Imomov qalamiga mansub “Tafakkur durdonalari” nomli kitobning nashr etilishi ana shu ma‘naviy ehtiyojga javob bo‘ldi. Mazkur asar asrlar mobaynida xalqimizning yuksak tafakkuri, hayotiy tajribasi va ma‘naviy qudrati natijasida shakllangan so‘z gavharlarini o‘zida jamlagan nodir manba sifatida e‘tiborga loyiq.

To‘plamda 1500 dan ortiq xalq maqollari, pand-nasihatlar, o‘xshatmalar, iboralar va hikmatli fikrlar jamlangan. Ular insonni ezigulikka, halollikka, sabir-bardoshga, kechirimli bo‘lishga, har bir ishda o‘ylab qaror qabul qilishga undaydi. Muallif bu xazinani faqat yig‘ibgina qolmagan, balki har bir fikrga ijodiy yondashib, unga yangi ruh, yangi falsafiy mazmun bag‘ishlagan.

Asarda qisqa, lo‘nda jumlarlar orqali hayotning keng qamrovli, murakkab haqiqatlari ifoda etilgan. Bu esa kitobning ta’sirchanligini yanada oshiradi. Har bir o‘quvchi ushbu so‘z durdonalari orqali o‘z hayotiga nazar tashlaydi, o‘zini anglaydi, xulosa chiqaradi.

“Tafakkur durdonalari” — muallifning ikkinchi asari bo‘lib, uning birinchi kitobi 2022-yilda nashr etilgan va unda 1000 dan ortiq pand-nasihatlar o‘rin olgan edi. Yangi asarda esa mazmun va qamrov

yanada kengaygan. Kitobda inson bilan Alloh o‘rtasidagi muhabbat, ilohiy kechirim, taqdir, sabr, rizq, inson qalbining pokligi kabi mavzular chuqur falsafiy ruhda yoritilgan.

Ayniqsa, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, do‘stlik, sadoqat, kamtarlik, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi nozik chegaralar kitobda keng o‘rin olgan: “Haqiqiy do‘st — sening yomon holatingda o‘zingni yaxshi his qilishga yordam bergan insondir”, “Odamlarning eng ahmog‘i - o‘zini eng aqlli hisoblaydiganidir”, “Oilada munosabatlar yaxshi, barqaror bo‘lishi uchun er va xotin ko‘r, gung, soqov bo‘lishlari kerak”, “Har bir inson mukammallikdan yiroqdir. Lekin u o‘zgalarning kamchiliklarini kechirishga, ko‘rmaslikka tayyor emas”, “Bugun vaqtning bo‘lmaydi. Ertaga kuching bo‘lmaydi. Indinga o‘zimiz bo‘lmagimiz mumkin. Xulosa: bugungi ishini ertaga qoldirma”.

Bu fikrlar o‘quvchini nafaqat o‘ylantiradi, balki ma‘naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu kitob barcha yoshdagi kitobxonlar uchun tafakkurni charxlaydigan, ma‘naviy-ma‘rifiy ozuqa beradigan, hayotga boshqacha nazar bilan qarashga undaydigan qimmatli manba hisoblanadi.

Akram BO‘RIYEV.

► Suratdagi tarix



1888-yilda olingan ushbu suratda bo‘lg‘usi ma‘rifatparvar olim, jurnalist va tarjimon Saidrizo Alizoda. U otasi, hoji Mirmaxsum Alizoda bilan.

(Surat Saidrizo Alizodaning nevarasi Farhod Alizodaning shaxsiy arxividan olindi).

Йўлчи Муҳаммадиев - 1956 йил 3 февралда Оқдарё туманининг Холдор қишлоғида туғилган. Тошкент давлат университети (ҳозирги ЎЗМУ)да таҳсил олган. Иш фаолиятини 1973 йилда "Оқдарё овози" газетасида мусахҳихликдан бошлаган. Кейинчалик муҳбир, бўлим мудири, масъул котиб вазибаларда ишлаб, 1991 йилдан ҳозирги кунга қадар ушбу газета муҳаррири сифатида меҳнат қилиб келмоқда.

2011 йилда "Йилнинг энг фаол журналисти" республика танлови ғолиби бўлган.

Й.Муҳаммадиевнинг "Оқдарё фарзандлари", "Оқдарё баёзи", "Қайтиш", "Тўхмат гирдоб", "Оқдарёнинг ҳақ овози" китоблари чоп этилган.

Йўлчи Муҳаммадиевни 70 ёши билан қутлаймиз!



Уч кундан буён

тиниhsиз ёғаётган қор эрталабга бориб тинди. Тун бўйи отасининг ёнидан жилмай ўтириб чиққан Соҳибжонни ўйку бо-сарди. Аммо отасига сездирмасликка ҳаракат қиларди. Икки ҳафтадирки, отасининг тоби йўқ. Нуқул кечалари алаҳсираб, раҳматли хотини билан гаплашиб чиқади.

Орзиғул, яқинда ёнингга бораман, сенсиз бу дунё зерикарли экан...

Бу сўзни отаси ҳар кuni такрорлагани-такрорлаган. Ана шундай пайтда Соҳибжоннинг кўзларига ёш қўйилиб келади. Шунда раҳматли онасини эслайди. Онаси жуда яхши, камгап аёл эди. Бир умр қолхозда ишлади. Уйим-жойим, рўзгорим деб тиним билмади. Шу тарзда бирор жойни ҳам кўрмай ўтиб кетди.

Ғоҳида катта ўғли онасига: "Ойи, юринг, бир Тошкентни айлантириб келай", деб қистаса ҳам, "Йўқ, болам, менга шу қишлоғим, уйим яхши, насиб қилса борарман", деб қўярди.

Онаси ҳаётлик чоғида ҳам отасининг бир-икки тоби қочиб қоларди. Бироқ беш-олти кун муолажа олгач, яна соғайиб кетарди. Ўтган йили онаси оламдан ўтиб, чол камгап, одамови бўлиб қолди.

Ҳатто чойхонага ҳам чиқмай қўйди. Уззу-кун хонасига қамалиб олиб, газета-журналларни, китобларни титқилайди. Альбомдаги суратларни кўриб ўтганларни хотирлайди.

- Соҳибжон, болам, акангга хабар қилдингми? - отасининг оҳиста сўзидан Соҳибжон сергак тортиди. Отаси бир кун олдин "катта акангни чақир, келин, набираларни ҳам олиб келсин", деганди. У акасига бор гапни айтди. Лекин акаси: "Бобоини билмайсани, бир-икки кун уқол олса, отдек бўлиб кетади. Имон топсам бораман, ҳадеб мени безовта қилманглар", - деди.

Очиги, акасининг бу гапидан унинг жаҳли чиқди. Қизик. Одам боласи ўз ота-онасидан қанча узоқ бўлса, шунчалик меҳрсиз бўлиб кетаркан-да. Акаси онда-сонда оғайниларининг тўй-маъракаларига келмаса, умуман қорасини кўрсатмасди. Куну-тун тижоратни, пулни ўйлайди. Раҳматли онаси ҳам шу ўғлининг йўлига кўз тикиб бандаликни бажо келтирган эди. Бунчалик бемехр бўлмаса. Ё шахар одамни шунақа қилиб қўярканми?! Бу гапларни Соҳибжон отасига қандай айтди? Яхшиямки, уқаю сингиллари кунига хабарлашиб, отасининг кўнглини олишяпти. Шундай бўлса-да, акаси оиланинг тўнғичи. Унинг ўрни бошқа. Соҳибжон кун сайин кўзлари киртайиб, сўлиб бораётган отасининг юзига қараб ўқсир, беихтиёр йиғлаб юборай дерди.

Укаси Соҳибжоннинг устма-уст қилган телефони Низомидинни бироз бўлса-да,

ташвишга солди. Укаси ҳеч қачон бундай овозда гапирмас, унинг безовталиги сезилиб турарди.

- Ҳа, دادаси, намунча ўйланиб қолдингиз. Укангиз бўлар-бўлмасга телефон қилиб ишдан қолдирапти. Ахир, эртага қудаларимиз келишади. Тайёргарлик кўриш керак, - деди хотини унинг хаёлларини бўлиб.

- Эсинг жойидими, шу маҳалда кўнглимга меҳмон сиғадами?

Отам қишлоқда оғир ётса-ю, мен бу ерда меҳмондорчилик қилиб юрсам ярашадими? - у хотинига дашмон берди.

Эридан бирор марта дакки эшитмаган Мунирага бу оғир боти. Бирор нарсаси дейишга оғиз жуфтлади-ю, аммо эрининг авзойини кўриб фикридан қайтди. "Ўзингиз биласиз", дея нариги хонага ўтиб кетди. Низомидин укаси билан қўпол оҳангга гаплашганидан хижолатда эди. Нега ундай деди, бунга ўзи ҳам ҳайрон. Ҳозир укасига сим қоқади. Қўл телефонидан укасининг рақамини терди.

- Алло, Соҳибжон. Бу менман. Отамнинг ахволи яхшими? Кечгача етиб бораман. Шу гапларни айтгач, елкасидан тоғ ағдарилгандай бўлди. Тезда кийиниб йўлга чиқди. Автоуловда қишлоққа қандай етиб келганини ҳам билмай қолди. Йўл-йўлакай отаси билан ўтган дамларни, ёшлик чоғларини эслади. Беихтиёр кўзига ёш келиб, "ота" деб юборди. "Нега буларни эслаганман. Отам ҳали яшади", дерди ўзига ўзи.

У уйга кираркан, жўссаси кичрайиб қолган отасига кўзи тушди. Беихтиёр кўзлари намланди. Отасининг ёнига чўккалади. Бемор чалқанча ётганча қийналиб нафас олар, кўзлари хиёл юмук эди.

- Ота, мен келдим, - ўғилнинг овози титраб чиқди.

Йўлларига интизор ота кўзларини очиб, унга қаради ва:

- Низомидинмисан? - деди.

- Ҳа, ота, мениман, - шошиб жавоб берди ўғил.

- Қўлингни бер, ўғлим, - чол титроқ кўзлари билан унинг кафтини тутди. - Укаларингга бош бўл, қишлоққа келиб тур. Узилиб кетма, ўзингдан узилиб кетма.

Шу гапларни айтди-ю, мажолсиз қўлини қўйиб юборди. Бундай бўлишини кутмаган, саросимада қолган ўғил овози борица бақириб юборди:

- Ота, отажон, кўзингизни очинг...

Низомидиннинг қулоғида отасининг сўнги сўзлари жананглайверди: "Узилиб кетма, ўзингдан узилиб кетма..."

Йўлчи МУҲАММАДИЕВ.

FEVRAI OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-FEVRAL

Mamatqul HAZRATQULOV – 1947-yilda Urgut tumanida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist.

2-FEVRAL

Bahrom VAFOQULOV – 1928-yilda Samarqand tumanida tug‘ilgan. Tibbiyot fanlari doktori.

3-FEVRAL

Matlub SAMIBOYEV – (1927-2019) Samarqand shahrida tug‘ilgan. Tibbiyot fanlari doktori.

Toshpo‘lat SHIRINQULOV – (1937-2009) Qo‘shrabot tumanida tug‘ilgan. Texnika fanlar doktori, akademik. “Hurmat belgisi” ordeni, “Shuhrat” medali sohibi.

5-FEVRAL

Dushan FAYZIY – (1926-2009) Qiziltepa tumanida tug‘ilgan. Shoir dramaturg, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi.

Ne‘mat TURNIOYOZOV – (1940-2022) Paxtach tumanida tug‘ilgan. Filologiya fanlari doktori.

Komil OQILOV – (1928-2021) Samarqand tumanida tug‘ilgan. Tarixchi olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

6-FEVRAL

Qudrat SUYUNOV – (1919-1943) Paxtach tumanida tug‘ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 742 nusxada chop etildi. Buyurtma 43. Hajmi 2 bosma tabqa, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda